

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXIV sessiyasi bo'lib o'tdi

Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining XXIV sessiyasi bo'lib o'tdi

Sessiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi O.K.Iminov, Xalq deputatlari viloyat Kengashiga Termiz shahridan saylangan deputatlari, Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari, sektor rahbarlari, shahar hokimining o'rinbosarlari, tashkilot-korxonalar rahbarlari va OAV vakillari ishtirok etishdi.

Sessiya kun tartibidagi birinchi masala yuzasidan shahar hokimining o'rinbosari K.Ashurovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida qayd etilgan topshiriqlarni amalga oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha eng ustuvor vazifalarni belgilash, ular ijrosini ta'minlash to'g'risida ma'ruzasini tinglab, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi qarori qabul qilindi.

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Iminov Odiljon Karimovich tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasining mazmun mohiyati to'g'risida fikr mulohazalari tinglanib, deputatlarga o'zlari saylangan saylov okruglarida, korxonalar va tashkilotlarda keng muhokama qilish borasida tavsiyalar berib o'tdi.